



KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Tojiyev Javlonbek Rustamovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Mustaqil izlanuvchisi

ORCID:0009-0003-4678-2423

Annotatsiya: Innovatsiyalar tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligi va barqarorligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekistonda innovatsion faoliyatni rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishlari qatoriga raqamli transformatsiya, sanoatni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish jarayonlariga sun'iy intellektni integratsiyalash kiradi. Hukumat strategiyasi iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishni rag'batlantirish uchun qishloq xo'jaligi, fintech va ishlab chiqarishdagi texnologik yutuqlarga urg'u beradi. Maxsus iqtisodiy zonalarni amalga oshirish, soliq imtiyozlari va venchur kapitalni qo'llab-quvvatlash kichik va o'rta korxonalar (KO'B) o'rtasida innovatsiyalarni tezlashtiradi. Taraqqiyotga qaramay, byurokratik to'siqlar va cheklangan moliyalashtirish kabi muammolar saqlanib qolmoqda. Huquqiy bazalarni mustahkamlash va xususiy sektor ishtirokini oshirish innovatsiyalarga asoslangan o'sishni ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot ushbu omillarni o'rganadi va O'zbekistonning tadbirkorlik sub'yektlarida innovatsion ekotizimini optimallashtirish bo'yicha tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: Innovatsion siyosat, startup ekotizimi, raqamli transformatsiya, investitsion muhit, sanoat modernizatsiyasi, davlat-xususiy sheriklik (DXSh), ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (ITTKI), aqlli iqtisodiyot, kadrlar tayyorlash, texnoparklar, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, normativ-huquqiy baza, eksport salohiyati, yashil texnologiyalar, elektron hukumat.

Abstract: Innovation plays a decisive role in increasing the competitiveness and stability of business entities. Among the main priorities for the development of innovative activities in Uzbekistan are digital transformation, industrial modernization, integration of artificial intelligence into production processes. The government strategy emphasizes technological advances in agriculture, fintech and manufacturing to encourage diversification of the economy. Implementation of Special Economic Zones, tax incentives and support for venture capital accelerate innovation among small and ediumsized enterprises (SMEs). Despite the progress, problems such as bureaucratic barriers and limited funding remain. Strengthening legal bases and increasing private sector participation are key to ensuring innovation-based growth. This research studies these factors and provides recommendations for optimizing the innovative ecosystem of Uzbekistan in entrepreneurial subjects.

Key words: Innovation Policy, startup ecosystem, digital transformation, investment environment, industrial modernization, public-private partnership (DXSh),

scientific research and design work (ITTKI), smart economy, personnel training, technoparks, financial support, regulatory framework, export potential, green technologies, e-government.

Аннотация: Инновации играют решающую роль в повышении конкурентоспособности и устойчивости хозяйствующих субъектов. Среди основных приоритетов развития инновационной деятельности в Узбекистане – цифровая трансформация, модернизация промышленности, интеграция искусственного интеллекта в производственные процессы. Стратегия правительства делает упор на технологические достижения в сельском хозяйстве, финтех-технологиях и производстве, чтобы стимулировать диверсификацию экономики. Внедрение особых экономических зон, налоговых льгот и поддержки венчурного капитала ускорит инновации среди малых и средних предприятий (МСП). Несмотря на прогресс, такие проблемы, как бюрократические барьеры и ограниченное финансирование, остаются. Укрепление правовой базы и увеличение участия частного сектора имеют решающее значение для обеспечения роста, основанного на инновациях. Настоящее исследование изучает эти акторы и дает рекомендации по оптимизации инновационной экосистемы в субъектах предпринимательства Узбекистана.

Ключевые слова: Инновационная политика, экосистема стартапов, цифровая трансформация, инвестиционный климат, модернизация промышленности, государственно-частное партнерство (ГЧП), научно-исследовательские и опытно-конструкторские работы (НИОКР), Интеллектуальная экономика, обучение персонала, технопарки, финансовая поддержка, нормативно-правовая база, экспортный потенциал, зеленые технологии, электронное правительство.

KIRISH

Zamonaviy jahon iqtisodiyotida innovatsiyalar raqobatbardoshlik, mahsuldorlik va barqaror o‘shishning asosiy omili bo‘lib xizmat qiladi. Tadbirkorlik subyektlari uchun innovatsion faoliyatni joriy etish uzoq muddatli muvaffaqiyatga erishish, texnologik taraqqiyotga moslashish va iqtisodiy barqarorlikni oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. O‘zbekistonda innovatsiyalar iqtisodiyotni rivojlantirishning strategik ustuvor yo‘nalishi sifatida e’tirof etilgan bo‘lib, hukumat siyosati va islohotlari dinamik biznes muhitini mustahkamlashga qaratilgan.

O‘zbekistonda tadbirkorlik subyektlarida innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlovchi ekotizim yaratish bo‘yicha muhim qadamlar qo‘yildi. “O‘zbekistonni innovatsion rivojlantirish strategiyasi (2022-2026-yillar)[1] va keyingi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi”da innovatsiyalarni rag‘batlantirishda raqamli transformatsiya, texnoparklar va ilmiy-tadqiqot institutlarining roliga urg‘u berildi [2]. “Qishloq xo‘jaligi, energetika, ishlab chiqarish, axborot texnologiyalari va moliyaviy xizmatlar” kabi asosiy tarmoqlar innovatsiyalar uchun ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan.

O‘zbekiston innovatsion siyosatidagi asosiy islohotlardan biri startaplar va texnologiyaga asoslangan korxonalarni moliyaviy va infratuzilmaviy qo‘llab-

quvvatlashni ta'minlovchi Mirzo Ulug'bek Innovation Center va Toshkentdagi IT Park kabi "texnoparklar va innovatsion klasterlarni" tashkil etishni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, soliq imtiyozlari, grantlar va investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash dasturlari korxonalarini innovatsion amaliyotlarni integratsiyalashga undaydi.

Bundan tashqari, "bank va moliya sektori" raqamli banking, fintech yechimlari va venchur kapital investitsiyalari orqali innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. "O'zbekiston-2030" strategiyasi maqsadiga oid hukumat tashabbuslari biznes operatsiyalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish, samaradorlik va shaffoflikni oshirishga yordam beradi.

Ushbu yutuqlarga qaramay, "venchur kapitaliga kirishning cheklanganligi, malakali mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj va tartibga soluvchi to'siqlar" kabi muammolar saqlanib qolmoqda. Ushbu muammolarni hal qilish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligini davom ettirish, ta'lim sohasida islohotlar o'tkazish va intellektual mulkni himoya qilish bo'yicha huquqiy bazani takomillashtirish zarur.

Umuman olganda, O'zbekistonda innovatsion biznesni rivojlantirishga qaratilayotgan e'tibor jahon tendensiyalariga mos keladi, raqamli va bilimga asoslangan iqtisodiyotda raqobatbardoshlik va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. Ushbu strategiyada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish alohida ustuvor yo'nalish sifatida belgilanadi. Imtiyozlar, kreditlash, raqamlashtirish va eksport salohiyatini oshirishga alohida e'tibor qaratiladi.

G. Boboyeva, muallif kompaniyaning biznes innovatsiyalari kapitalga sarmoya kiritish va yangi texnologiyalarni ishlab chiqish g'oyasiga asoslanishi. Innovatsion biznesning biznes modeli innovatsion va samarali biznes modelini yaratish va rivojlantirish g'oyasiga asoslanishi bo'yicha tadqiqotlar olim borib muhim natijalarga ega bo'lgan [3].

Islamovna.D.M. Ushbu tadqiqot ishida mamlakatimizda qurilish industriyasini xususiylashtirish natijasida shakllangan qurilish sohasidagi kichik biznes subyektlari faoliyatini innovatsion boshqarish tizimi va rivojlantirish tamoyillarini takomillashtirish, kichik biznes sub'yektlarining samarali ishlashi uchun uning tashkiliy boshqaruv tuzilmasini ishlab chiqish bo'yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan [4].

TAHLIL VA NATIJALAR

Innovatsion faoliyatning rivojlanishi tadbirkorlik subyektlari uchun barqaror o'sish va xalqaro raqobatbardoshlikni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. O'zbekiston misolida so'nggi yillarda innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash bo'yicha olib borilgan islohotlar va ularning iqtisodiy natijalari quyidagi asosiy ko'rsatkichlarda o'z aksini topmoqda.

Innovatsion faoliyatning iqtisodiy natijalari: 2017–2024-yillar oralig'ida O'zbekistonda innovatsion faoliyatga ajratilgan investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshdi. 2017-yilda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga (ITTKI) ajratilgan

mablag'lar 450 milliard so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 2,1 trillion so'mga yetdi, ya'ni 4,7 barobar o'sish kuzatildi.

Shuningdek, innovatsion mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar soni ham oshib bormoqda. 2017-yilda 1240 ta tadbirkorlik subyekti innovatsion mahsulot ishlab chiqargan bo'lsa, 2023 yilda ularning soni 3600 taga yetdi, bu esa 2,9 barobar o'sish demakdir.

Kichik va o'rta biznesda innovatsiyalar: Kichik va o'rta biznes subyektlari uchun innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lib, 2019 - 2024-yillar oralig'ida:

“Startup-inkubator” dasturlari doirasida 950 dan ortiq yangi biznes g'oyalarga 200 milliard so'm miqdorida grantlar ajratildi. Innovatsion kreditlar ajratish hajmi 2019-yilda 1,2 trillion so'm bo'lsa, 2024-yilda 3,8 trillion so'mga yetdi. Elektron tijorat hajmi 2017-yildagi 300 milliard so'mdan 2024-yilda 2,4 trillion so'mga yetib, 8 barobar o'sdi [5].

O'zbekistonda innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda va ularning natijalari iqtisodiy ko'rsatkichlarda yaqqol aks etmoqda. Innovatsiyalar sanoat, qishloq xo'jaligi, axborot texnologiyalari va kichik biznes sohalarida katta o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Kelgusida innovatsion ekotizimni mustahkamlash va texnologik taraqqiyotni jadallashtirish O'zbekiston tadbirkorlik subyektlarining global bozorlar bilan integratsiyasini yanada oshirishga xizmat qiladi [6].

Tadbirkorlik subyektlarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish zamonaviy iqtisodiyotning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning samaradorligi mamlakatning raqobatbardoshligini oshirishda katta ahamiyatga ega. O'zbekiston misolida olib borilgan tadqiqotlar va amaliyotlar shuni ko'rsatadiki, innovatsion faoliyatni rivojlantirishda bir qancha asosiy omillar hal qiluvchi rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasida «Tadbirkorlik to'g'risidagi» qonunga muvofiq balog'at yoshiga yetgan har bir fuqaro o'z mulki asosida yoki mulk egasining vakolati asosida o'z ixtiyori bilan qonunga zid bo'lmagan faoliyat turi bilan shug'ullanishi mumkin. Ikkinchidan, tadbirkorlik faoliyatini tanlash, uni tashkil etish va rivojlantirish davlat va jamiyat ahamiyatiga ega bo'lmasdan, balki erkin tanlaydigan faoliyatdir. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni hozirgi holati.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2023-yil 4-sentabrdagi PQ-292-son hamda «Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida», 2023-yil 14-sentabrdagi PQ-306-son qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida» 2023-yil 14-sentabrdagi PQ-306-son qaroriga muvofiq:» Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash» kompleks dasturi (keyingi o'rinlarda -Dastur) amalga oshirilishi;

- tashabbuskorlar qisqa va o'rta muddatli amaliy o'quv kurslarda biznes ko'nikmalariga o'qitilishi;

- amaliy o'quv kurslarini muvaffaqiyatli tugatib, sertifikat olgan tashabbuskorlar Dastur doirasida moliyaviy va konsultativ qo'llab-quvvatlanishi;

«Biznesni rivojlantirish banki» ATB Dasturni samarali amalga oshirish va doimiy ravisha takomillashtirib borish bo'yicha asosiy tayanch bank etib belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilarni nazarda tutuvchi «Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash» kompleks dasturi tashabbuskorlarini tanlash, ularning loyihalarini qo'llab-quvvatlash va moliyalashtirish to'g'risidagi nizom l-ilovaga muvofiq tasdiqlansin:

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha so'nggi yillardagi holatlari.

1. 2026-yilda kichik va xususiy biznesni rivojlantirishning asosiy maqsadli ko'rsatkichlari etib quyidagilar belgilansin:

- kichik va o'rta biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 55 foizga, sanoatda -34 foizga, eksportda -34 foizga va aholi bandligini ta'minlashda 75 –foizga yetkazish;

- kamida 600 nafar kichik va o'rta biznes subyektlarining yiriklashishiga ko'maklashish orqali ularni «champion» tadbirkorlarga aylantirish;

- ichimlik va oqova suv, yo'l, qurilish, kommunal xo'jalik, utilizatsiya, migratsiya, madaniyat va ijtimoiy xizmatlarda kichik biznes ulushini kamida 2 baravarga oshirish;

- 100 nafardan ko'p ishchisi bor tadbirkorlik subyektlari sonini 4 mingga yetkazish;

Sanoatni jadal rivojlantirish bo'yicha loyiha ofislarini tashkil etish hisobiga kamida 100 ta kichik va o'rta biznes subyektlarida brend mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish;

- kichik biznes subyektlari ishtirokida kamida 200 ta startap loyihalarni amalga oshirish;

- uzoq muddatli ijaraga berilgan 30 ming gektar ekin yer maydonida yuqori daromadli ekinlarni yetishtirish, 16 ta ixtisoslashgan agrokompaniya faoliyatini yo'lga qo'yish hamda 9 ta zamonaviy agrosanoat xo'jaligini tashkil qilish.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'sish sur'atlariga bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlari, investitsiyalarning kirib kelishi, tadbirkorlarga berilayotgan imkoniyatlar va imtiyozlar, oilaviy tadbirkorlikka e'tiborning kuchayishi va boshqa ko'pgina omillar ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, kichik biznes iqtisodiyotning tayanchi. Bunga quyidagilarni misol qilib olishimiz mumkin. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning eng muhim bo'g'inlaridan biridir. Ular ish o'rinlari yaratadi, mahalliy xomashyoni qayta ishlaydi va ichki bozorda talabni qondiradi. Ishsizlikni kamaytirishdagi roli. Kichik tadbirkorlik, ayniqsa xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish sohalarida ish o'rinlarini yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Ayniqsa, yoshlar va ayollar bandligini ta'minlashda ulkan salohiyatga ega. Soliq bazasining kengayishi. Ko'plab kichik korxonalar qonuniy faoliyat yuritgan taqdirda

davlat byudjetiga soliq tushumlari ortadi. Bu esa infratuzilma va ijtimoiy sohalarni moliyalashtirish imkonini beradi. Innovatsion g'oyalarning manbai. Ko'p hollarda innovatsion mahsulotlar va xizmatlar aynan kichik biznes subyektlarida vujudga keladi, chunki ular bozorga tez moslashadi va yangilikka ochiq bo'ladi.

Moliyaviy resurslarga kirish cheklangan. Afsuski, bugungi kunda kichik biznes vakillarining moliyaviy manbalarga (kreditlar, investitsiyalar) kirish imkoniyati hali ham cheklangan. Raqobatbardoshlik muammosi. Import o'rini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishda kichik korxonalar ko'pincha yirik korxonalar bilan raqobatlasha olmaydi.

Huquqiy va ma'muriy to'siqlar. Ruxsatnomalar, litsenziyalar olishdagi byurokratik tartiblar hamon kichik tadbirkorlikning rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari bo'yicha quyidagi takliflarni berishimiz mumkin:

- moliyaviy ko'makni kengaytirish.
- mikrocredit va grant dasturlarini ko'paytirish.
- kredit stavkalarini subsidiyalash.
- investitsiya jamg'armalari orqali xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash.

Soliq siyosatini soddalashtirish.

- yangi ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlarga soliq imtiyozlari berish (masalan, dastlabki 3 yil uchun soliq ta'tili).

- «Yagona soliq» tizimini soddalashtirish va raqamlashtirish. Yuridik yordam va konsalting xizmatlarini kengaytirish.

- Har bir tumanda bepul huquqiy maslahat markazlarini tashkil qilish. Tadbirkorlar uchun onlayn platformalar orqali maslahat xizmatlarini yolg'a qo'yish. Bozor va eksport imkoniyatlarini kengaytirish.

- Mahalliy mahsulotlarni xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok ettirish.

- Tashqi bozorlarga chiqish uchun sertifikatlash va standartlashtirish markazlarini yaratish.

- Ta'lim va malaka oshirish dasturlarini joriy qilish.

- Tadbirkorlik asoslari bo'yicha o'quv kurslarini maktab va kollej darajasida kiritish.

- Amaliy seminarlar, biznes-inkubatorlar va mentorlik dasturlarini rivojlantirish.

- Raqamli infratuzilmani rivojlantirish.

- Onlayn biznes yuritish uchun platformalar (e-commerce, e-banking, CRM tizimlar)ni subsidiyalash.

- «Raqamli tadbirkor» dasturini yaratish.

- Ayollar va yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash.

- Ayollar va yoshlar uchun maxsus imtiyozli kreditlar.

- Gender tenglikni qo'llab-quvvatlaydigan biznes muhitini shakllantirish.

- Ma'muriy yukni kamaytirish.

- «Yagona darcha» tamoyilini to'liq joriy etish.

- Ruxsatnoma va litsenziyalar sonini kamaytirish, ularni raqamlashtirish.

Innovatsion faoliyatning samaradorligini ta'minlash uchun davlat tomonidan startap loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, soliq imtiyozlari va texnologik inkubatorlarni rivojlantirish kabi mexanizmlar ishlab chiqilgan.

Biroq, innovatsion ekotizimni rivojlantirish yo'lida hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar ham mavjud. Xususan, malakali mutaxassislar yetishmovchiligi, innovatsion infratuzilmani rivojlantirish zarurati va ilm-fan hamda biznes hamkorligini mustahkamlash dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

Kelgusida O'zbekistonda innovatsion tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun ilmiy-tadqiqot institutlari, ishlab chiqarish sektori va davlat o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish, investitsion muhitni yaxshilash va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa O'zbekiston iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishiga xizmat qilib, global bozorlarga integratsiyani jadallashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.07.2022-yildagi "2022 — 2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-165-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6102462>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

3. Boboyeva, G. (2022). Insoniy kapital-kichik biznes innovatsion faolligini oshiruvchi omil sifatida. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 23(Maxsus_son), 399-404.

4. Islamovna, D. M. (2022). Qurilish sohasida kichik biznes sub'yektlarining innovatsion faoliyati va uni tashkil etishning asosiy tamoyillari. *Qo'qon universiteti xabarnomasi*, 5, 36-39.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (stat.uz)

6. Ibrohimov, B. (2024). O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlarida innovatsion faoliyatning ahamiyati va o'rni.

7. Ibrohimov, B., & Tursunov, A. (2024). O'zbekiston Respublikasining agrar siyosati va uni takomillashtirish yo'llari.

8. Boburmirzo, I., & Yunusov, A. (2024). Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yilida mehnat bozorini tahlili. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 2(17), 20-28.

9. Baxtiyor o'g'li, I. B. (2023). Forms of ownership and entrepreneurship in agriculture in uzbekistan. *Miasto Przyszłości*, 42, 284-291.

10. Ibrahimovich, R. B., Ugli, I. B. B., & Ugli, I. B. B. (2023). Innovative reforms in agriculture development. *The American Journal of Management and Economics Innovations*, 5(03), 9-13.

11. Rahimov, B. I., Yoldashev, B. S., & Ibrahimov, B. B. (2023). The need to organize a cluster in the agricultural network. *International Journal Of Management And Economics Fundamental*, 3(02), 9-19.

12. J.Tojiyev. Hududlarni barqaror rivojlantirishda mikromoliyalashtirishning roli. "Jahon sivilizatsiyasida buxoroning o'rni: boy meros, barqaror rivojlanish, yorqin kelajak" Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari 2 to'plam. Buxoro shahri, 9-10-sentabr, 2025-yil.

13. Tojiyev J.R. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini mikromoliyalashtirishda mikromoliyaviy tashkilotlarning rolini oshirish masalalari. *Empowerment of youth*

intellectual success (EYIS). ilmiy-ommabop jurnalini konferensiyasi. Volume 1 № 4| iyun 2025. 93-96 betlar.

14. J.R.Tojiyev. Yangi o‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishida oilaviy tadbirkorlikning o‘rni. “Yashil iqtisodiyot sharoitida barqaror savdo strategiyalari: muammo va yechimlari” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjumanning materiallar to‘plami 2025 yil 20 may. 458-460 betlar.

15. Tojiyev J. Yangi o‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari. “Muhandislik va iqtisodiyot” jurnali 2025-yil 132-137 betlar.

16. J.Tojiyev. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishda mikromoliyalashtirishning rolini oshirish yo‘llari. “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali. 2024-yil. 239-243 betlar.

17. J.R.Tojiyev. Роль микрофинансирования в развитии предпринимательства в Узбекистане . “Banklarni transformatsiya qilish va bank xizmatlari bozorida raqobatni rivojlantirish yo‘llari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 2024-yil. 948-950 betlar